


**Namangan viloyati  
Statistika boshqarmasi**

# **NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI**



**2023- YIL  
yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

2023- yil yanvar-aprel

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar  
ulushi –  
66,1 %**

**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi –  
1 906,6  
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi –  
5 729,3  
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlikning  
ulushi –  
59,2 %**

**Ko'rsatilgan  
bozor  
xizmatlarining  
o'sish  
sur'atlari -  
117,1 %**

**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan xizmatlarning  
o'sish sur'atlari –  
114,5 %**

*Dastlabki ma'lumotlar*

2023- yil yanvar-aprel




**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 729,3** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 313,8** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **117,1 %** ni tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma'lumotlar


**2023- yil yanvar-aprel**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-aprel oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>5 729,3</b>	<b>117,1</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	291,8	125,6
Moliyaviy xizmatlar	1 066,2	128,3
Transport xizmatlari	1 234,6	140,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	806,7	103,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	138,7	104,4
Savdo xizmatlari	1 718,2	105,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	137,5	104,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	248,5	134,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	118,4	105,2
Ijara xizmatlari	85,7	90,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	154,6	102,4
Shaxsiy xizmatlar	348,6	104,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	50,6	102,1
Boshqa xizmatlar	135,9	103,5

**Dastlabki ma'lumotlar**

## 2023- yil yanvar-aprel

**Taqqoslash uchun:** 2023- yilning yanvar-aprel oylarida Ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **134,0 %**. Nisbatan past Ijara xizmatlari sohasidagi xizmatlarida kuzatilgan – **90,4 %**.




**Dastlabki ma'lumotlar**

**2023- yil yanvar-aprel**

2023-yilning yanvar-aprel oylarida transport xizmatlari hajmi **1 234,6** mlrd. soʻmga teng boʻlib, ularning oʻsishi 2022- yilning shu davriga nisbatan **140,5** % ni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **21,5** % ni tashkil etdi.

**Turlari boʻyicha transport xizmatlarining tarkibi**  
*(2023- yil yanvar-aprel oylarida)*



2023- yilning yanvar-aprel oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **85,3** % dan yuqorini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-aprel oylarida ushbu transport turi tomonidan koʻrsatilgan xizmatlarning ulushi **89,1** % ni tashkil etgan.

**Dastlabki maʼlumotlar**

2023- yil yanvar-aprel




**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023-yilning yanvar-aprel oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **30,0** % ni tashkil etib, bu **1 718,2** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **1 451,1** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **32,9** % iga to'g'ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

2023–y.  
yanvar-  
aprel



Dastlabki ma'lumotlar

## 2023- yil yanvar-aprel

2023- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining beshdan to'rt qismini, aniqrog'i, **74,4 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **19,6 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **6,0 %** ni tashkil etdi.

### Savdo xizmatlarining tarkibi

(2023- yilning yanvar-aprel oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo ulushi **76,7 %** ni tashkil etgan.

*Dastlabki ma'lumotlar*



2023- yil yanvar-aprel



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar-aprel oylarida)

2023- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 066,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **752,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **18,6** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **17,1** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **313,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **128,3** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ularning o'sish sur'ati **129,8** % ni tashkil etgan.



**Dastlabki ma'lumotlar**

## 2023- yil yanvar-aprel

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,0 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,7 %** oralig'ida qayd etildi.


Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,3 %** ini tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-aprel oylarida)

Yordamchi moliyaviy  
faoliyat



Sug'urta bo'yicha  
xizmatlar



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **90,4 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta va nafaqa  
ta'minoti bo'yicha  
xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar

Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,0 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **3,6 %** ni tashkil etgan .

**Dastlabki ma'lumotlar**

2023- yil yanvar-aprel

Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2022- y.  
yanvar-aprel

227,0  
mlrd. so'm

123,8%

5,1 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi  
ulushi

Hajmning o'sishi

64,8 mlrd. so'mga

2023- y.  
yanvar-aprel

291,8  
mlrd. so'm

125,6 %


5,1 %

*Dastlabki ma'lumotlar*

## 2023- yil yanvar-aprel

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmogʻi, yoʻldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2023- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **93,5 %** ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-aprel oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **92,5 %** ni tashkil etgan.

### Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel

Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2023- yilning yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **248,5 mlrd. so'm**ga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,3 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **134,0 %** ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

2023- yil yanvar-aprel




**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2023- y.  
yanvar-aprel




118,4 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

2,1 %



Xizmatlarning  
jami hajmidagi ulushi


105,2%



O'sish sur'ati

2022- y.  
yanvar-aprel


99,7 mlrd. so'm



2,3 %



114,2 %



*Dastlabki ma'lumotlar*


2023- yil yanvar-aprel



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



*Dastlabki ma'lumotlar*

## 2023- yil yanvar-aprel


2022-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **17,2** mlrd. so'mga ko'paydi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



**2022- y.  
yanvar-  
aprel**

**2023- y.  
yanvar-  
aprel**



**Yashash bo'yicha  
xizmatlar**



**Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar**

2023- yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **82,9** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-aprel oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **82,2** % ni tashkil etgan.

**Dastlabki ma'lumotlar**



2023- yil yanvar-aprel

Tuman(shahar)lar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-aprel oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2023- y.	2022- y.
<b>Namangan viloyati</b>	<b>5 729,3</b>	<b>117,1</b>	<b>115,2</b>
Namangan sh.	2 535,3	127,8	118,0
<b><i>tumanlar:</i></b>			
Mingbuloq	199,0	109,9	114,2
Kosonsoy	275,1	109,7	115,1
Namangan t.	282,4	112,1	114,8
Norin	239,6	110,7	113,7
Pop	342,5	108,8	111,5
To'raqo'rg'on	355,1	113,3	110,2
Uychi	322,8	111,5	113,5
Uchqo'rg'on	256,0	109,6	114,0
Chortoq	289,3	110,7	114,6
Chust	363,0	102,8	113,8
Yangiqo'rg'on	269,2	110,4	112,5


***Dastlabki ma'lumotlar***

2023- yil yanvar-aprel



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

## Tuman(shahar)lar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da



2023- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Namangan shahri tashkil etdi – **44,3** % (2022- yilning yanvar-aprel oylarida – **40,5** %). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mingbuloq tumanida – **3,5** % (2022- yilning yanvar-aprel oylarida – **3,7** %) qayd etildi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

2023- yil yanvar-aprel



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning  
o'sishi

1 906,6  
ming so'm

403,6 ming  
so'mga

2023- yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 906,6** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **114,5 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:**

2022 - yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 502,9** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,6 %** da qayd etilgan.

O'sish sur'ati

114,5%



**Dastlabki ma'lumotlar**

2023- yil yanvar-aprel



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2023- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

19 259  
birlik



1086  
birlikka  
o'sgan

2022- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

1086  
birlik



5,6 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi




*Dastlabki ma'lumotlar*

## 2023- yil yanvar-aprel



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi




2023- yil yanvar-aprel oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **59,2 %** ni tashkil etdi

### 2023- yilning 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2023- yilning 1- yanvar-aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi **77,4 %** ga to'g'ri keldi.

**Xizmatlar sohasi  
statistikasi bo'limi  
Tel.: 69-211-72-00**



*Dastlabki ma'lumotlar*